

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 9 SINF O'QUVCHILARIDA
O'TKAZILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALAR TAHLILI

Buzrukov To'lqin Omonovich

Tayanch doktorant, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

+998915838200 tolqinbuzrukov5@gmail.com

Umumta'lim maktablarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va ularning mohiyati borasida quyidagi fikrlar yuritilgan.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida fizika o'qituvchilarida ta'lim jarayonining samarali kechishiga yordam beruvchi quyidagi ko'nikma va malakalar xosil bo'lishiga doir usullar:

1. Maqasad doirasida amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlash.
2. Mashg'ulot usulini aniqlash.
3. Mashg'ulot mazmunini to'laqonli yoritishga xizmat qiladigan shakl metod, vositalarni aniqlash.
4. O'quvchi tomonidan mavzu yoki o'quv materiali mohiyatining o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorni yo'lga qo'yish.

Ta'kidlab o'tilganidek, umumta'lim maktablarida fizika o'qitish samaradorligini oshirishda fizika o'qituvchilarining innovatsion yangi pedagogik texnologiyalar, nostandart topshiriqlar bo'yicha bilim ko'nikmasini oshirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Har bir ishda tashxisning to'g'ri qo'yilishi keyingi ishlarning samaradorligini belgilaydi. Shu bois o'quvchilarda masala yechish orqali fizika oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlarini shakllantirish xaqidagi tushunchalar to'g'risidagi bilim, tasavvur va ko'nikmalar shakllanganlik darajasining dastlabki holatini aniqlashga aloxida ahamiyat berildi. O'quvchilar bilan anketa so'rovnomalari o'tkazildi. Javob natijalarining tahliliga ko'ra, o'quvchilarda masala yechish orqali fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlarini shakllantirish asosida o'rganiladigan fizik tushunchalarga tegishli bilim va tasavvurlar yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko'ra, quyidagicha xulosalar qilindi:

Umumta'lim maktab o'quvchilari masala yechish orqali fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlarini shakllantirish haqida bilimigina ega emas, balki tasavvurga ham ega emas;

masala yechish orqali fizikaga oid kompetensiyalarni metodik xususiyatlarini shakllantirish mohiyatini tushunib etmagan;

umumta'lim va o'rta maxsus, kasb hunar va OTMlarda masala yechish orqali fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlarini shakllantirish mohiyati to'liq yoritilmagan.

Darslarni tekshirish jarayonida o'quvchilarda fizika to'g'risida tasavvurlarning shakllanganlik darajasiga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, muammo bo'yicha quyidagi savollar ishlab chiqildi va dastlabki ma'lumotlarni olish uchun o'quvchilarga taklif qilindi. Masalan:

- Fizikaga oid kompetensiya nima ekanligini ta'riflang?
- Siz masala yechishda fizikaga oid kompetensiyalarni sezganmisiz?
- Masala yechishda fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlari orqali hal qilishda o'zingizni erkin his qilasizmi?
- Agar siz bu masala yechishga qiziqsangiz, ma'lum vaqt va kuch sarflashni talab qiladigan masalani yechishda fizikaga oid kompetensiyalar orqali hal qilasizmi?
- Masala yechishda fizikaga oid kompetensiyalarning ro'li qanday?

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi o'z mohiyatiga ko'ra jahon ta'lim standartlari darajasidagi ta'lim muassasalariga ega bo'lishi lozim. Ta'limning maqsadi har bir kishiga amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan bilimlarni belgilangan Davlat ta'lim standartlaridan kam bo'lmagan hajmda olish imkonini berishdan iborat. Shuningdek, davlat ta'lim standartlariga masala yechishda fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlari tushunchasini kiritish kerak. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'limning barcha bosqichlari oldida har tomonlama yetuk, mustaqil fikr egasi bo'lgan, mutaxassislik fanlarini puxta o'zlashtirgan holda, zamonaviy texnologiya va texnik vositalardan foydalana olish layoqatiga ega bo'lgan shaxslarni yetishtirishdek o'ta muhim vazifa turibdi.

Yakunlovchi tajriba-sinov ishlarining natijalarini masala yechishda fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlari yordamida tahlil qilish asosida tadqiqot ishi mazmuni hamda ularda ilgari surilgan g'oyalarning samarali, asosli ekanligini tasdiqlash qo'yilgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir ishda tashxisning to'g'ri qo'yilishi keying ishlar samaradorligini belgilaydi. Shu bois o'quvchilarda fizikadan masala yechish kompetentlikning metodik xususiyatlari, tushunchalar shakllanganlik darajasining dastlabki holatini aniqlashga alohida ahamiyat berildi. O'quvchilar bilan anketa so'rovnomalari o'tkazildi. Javoblar taxlil natijalaridan, o'quvchilarning ko'pchiligida masala yechish kompetentlikning metodik xususiyatlarining ko'nikmasi yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Ammo Surxondaryo viloyatidagi maktablarda masala yechish orqali fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlarning shakllantirish haqida dastlabki so'rovnomalar o'tkazilganda oz bo'lsa-da, tushuncha ko'nimasiga ega ekanligi aniqlandi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning dinamik qonuniyatlar asosida o'rganiladigan bilimlari (mexanika, elektr, magnetizm, optika va atom) ma'lum bir mavzularidan egallagan bilim va ko'nikmalari bilan ularning masala yechish orqali fizikaga oid kompetensiyalarning metodik xususiyatlarini shakllantirishda fizika bo'limlarida qo'llaniladigan bilimlar bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalar orasida tafovut aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buzrukov T.O. Ta'lim tizimiga kompetensiyani kirib kelish tarixi // INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM Washington, USA 25th January 2021 7-8-9-10-11b.

2. Buzrukov T.O. Formirovanie kompetensiy shkolnikov v reshenii zadach po fizike // «NAUKA I MIR» Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal, № 2 (90), Volgograd, 2021 g. S. 8-9

